



## O'TKIR HOSHIMOVNING "IKKI KARRA IKKI – BESH" QISSASI BADIY TAHLILI

**Eshpulatova Nasiba Fozil qizi**

*Samarqand davlat universiteti 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** maqolada O'tkir Hoshimov hajviyoti, uning badiiy tasvir mahorati haqida gap ketadi. Uning "Ikki karra ikki – besh" nomli hajviy qissasi badiiy tahlil qilinadi. Qissa voqealari, undagi obrazlar xarakteristikasi va ruhiyati keng ochib beriladi. Adib hajviyotining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni, o'ziga xos jihatlari yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** hajv, qissa, hikoya, kinoya, xarakter, obraz, ramz, personaj, tip, yumor, satira.

O'zbek adabiyotida hajviyot ( satira va yumor) xalq og'zaki ijodidan boshlab zamonaviy adabiyotgacha boy va uzoq tarixga ega bo'lgan mustaqil yo'nalishdir. U jamiyatdagi nuqsonlarni, inson fe'l-atvoridagi salbiy jihatlarni kulgi orqali tanqid qilish va tuzatish vazifasini bajaradi. Hajviyotning ildizlari latifalar, askiya va qiziqchilik san'atiga borib taqaladi. O'zbek hajviyotining eng yorqin va ommabop timso li sifatida Nasriddin afandini keltirishimiz mumkin. Bu davrda askiya va latifalar og'zaki tarzda tarqalib xalq orasida mashhur bo'lgan. Nasriddin afandining sarguzashtlari haqidagi ko'plab hikoyalar og'izdan og'izga o'tib yurgan. Bu hikoyalarda bosh qahramon bir qarashda oddiy, ba'zan hattoki sodda odamdek ko'rinadi. Biroq hikoyaning yakunida uning gaplari yoki harkati chuqur ma'no kasb etadi. Afandi ko'pincha ochko'z boylar, manman amaldorlar, mantiqsiz odamlar ustidan kuladi.

Klassik adabiyot davriga kelib hajviyot mustaqil janr sifatida keng rivojlanmagan bo'lsa-da, ayrim satirik elementlar uchraydi. Ayniqsa axloqiy-didaktik ruhdagi asarlarda insoniy illatlar tanqid qilinadi. Turdi Farog'iy, Muqumiy (Tanobchilar, Saylov, Veksel), Zavqiy va Gulxaniy (Zarbulmasal) ijodida hajviyotning yorqin namunalari ko'rishimiz mumkin.

XX asr boshlarida jadid adabiyoti bilan hajviyot yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrda kulgi jamiyatni isloh qilish vositasiga aylandi. Jadid satirasining eng yorqin vakillaridan biri-Abdulla Qodiriy. Uning publistik asarlarida va ayrim badiiy matnlarida jaholat, eskicha tafakkur keskin tanqid qilinadi. Adib "Mushtum" jurnali orqali Kalvak Mahzum va Toshpo'lat tajang kabi o'lmas hajviy obrazlarni yaratgan.

XX asr ikkinchi yarmi o'zbek adabiyoti nasri rivojida O'tkir Hoshimov asarlari o'zining yuksak badiiyati va ijtimoiy hayotga yaqinligi bilan alohida ahamiyatga ega. Adib asarlarida hajviyot ko'pincha yumor va kinoya shaklida ko'plab namoyon bo'ladi va kulgi orqali jamiyatdagi siyosiy tuzum, dabdababozlik, ilmsizlik, poraxo'rlik muammolari va yolg'onchilik, xiyonat, manmanlik kabi insoniy illatlar ochib beriladi.



Adibning deyarli barcha asarlarida hajviy dialoglar va hayotiy hangomalar tasviri mavjud. Uning hajviy qissa va hikoyalari o'quvchini kuldiribgina qolmay, holat yuzasidan fikrlashga undaydi.

Adibning “Ikki karra ikki – besh” qissasi, “Ajdarning tavbasi”, “Osmondan tushgan pul”, “So'qqabosh bevagina” kabi hajviy hikoyalar to'plamlarida oddiy hayotiy voqealar hajv ostiga olingan. O'tkir Hoshimov asarlari xalqona sodda tili, kundalik hayotimizda tez-tez uchraydigan muammolarni tasvirlashi bilan kitobxon ko'nglidan keng joy egallaydi. Yozuvchi asarlari qahramoni sifatida oddiy, sodda, samimiy, so'zga chechan insonlarni tanlaydi. Uning “Ikki karra ikki – besh” qissasi bosh qahramoni Qo'shoqvoy ham xuddi shunday insonlar xilidan bo'lib, ko'ngli ochiq, mehnatsevar, rostgo'y bola. Asar kulgi orqali jamiyatdagi soxtalik, byurokratiya va mantiqsiz qarorlarni fosh qiladi. Qissa nomi o'ziyiq kinoyali: “Ikki karra ikki – besh”. Bu matematik jihatdan noto'g'ri, lekin muallif aynan shu orqali haqiqatni buzib ko'rsatishga majbur qiladigan tizimni tanqid qiladi. Muallif haqiqatni bilib turib ham uni inkor qilishga majbur bo'lgan odamlar ruhiyatini tasvirlaydi. Asarda qahramonlardan birining fikri bu holatni kinoyali tarzda ifodalaydi: “Ikki karra ikki to'rtligini hamma biladi. Ammo yuqoridan besh deyishsa, besh deyishga to'g'ri keladi.”<sup>66</sup> Bu parcha orqali yozuvchi jamiyatdagi soxta haqiqat tushunchasini ochadi. Ya'ni haqiqat ilmiy yoki mantiqiy mezon bilan emas, balki mansab va buyruq bilan belgilanishi mumkin bo'lgan muhit tanqid qilinadi. Hajviyot aynan shu mantiqsizlikni ko'rsatish orqali kuchayadi.

Qissada mansabdor shaxslar va tizim vakillari ko'pincha kulgili vaziyatlarda tasvirlanadi. Ular uchun haqiqatdan ko'ra hisobot muhimroq. Bu holat qahramonlarning nutqi va xatti-harakatlarida yaqqol ko'rinadi. Masalan, asarda bir vaziyatda qahramon shunday deydi: “Hisobotda hammasi joyida bo'lsa bo'ldi. Haqiqatni keyin ko'ramiz.” Bu jumla orqali yozuvchi byurokratik fikrlashni keskin tanqid qiladi. Kulgi yuzaki emas: o'quvchi vaziyatga kuladi, ammo shu bilan birga uning ortidagi muammoni ham anglaydi. Hajviyot shu tarzda ijtimoiy tanqidga aylantiriladi.

Bosh qahramon Qo'shoqvoy sodda shaxsiy fikri yo'q, atrofida bo'layotgan voqealar haqida mulohaza yuritmaydi, “Hamma shunaqa deyabdimi, demak bu to'g'ri” deb hisoblaydi, hammaga ishonadi, har qanday narsani to'g'ri ma'noda qabul qiladi. Odamlarga xos ikkiyuzlamachilik, soxtalik unga begona. Asar Qo'shoqvoyning bolalik hikoyalari bilan boshlanadi. Uning bolalarcha sho'xliklari, sof samimiy ruxiyati va shu soddaligi bilan atrofida bo'layotgan voqealarning asl mohiyatini anglamaydi, ular haqida fikr yuritib ham ko'rmaydi, yolg'onlarni sezmaydi. Muallif asarda birorta o'rinda bo'layotgan voqelikka ochiq izoh bermaydi. Voqealar Qo'shoqvoy tilidan u qanday anglagan bo'lsa shunday hikoya qilinadi ammo o'quvchi ozroq fikr mulohaza yuritsa voqeaning asl mohiyatini Qo'shoqvoy sezmagani haqiqatlarni darrov anglaydi.

<sup>66</sup> Hoshimov.O'. “Ikki karra ikki – besh”. T.: Nurli dunyo, 2024



Asarda Rais buva obrazi uning kirdikorlari, Tursunboy aka va uning xotini o'rtasidagi voqealar, Ra'noxon taqdiri birin ketin ochib beriladi. Asar yakunida Qo'shoqvoy bolaligidan beri ishonib kelgan Rais buvaning barcha qabih ishlaridan xabar topadi va ularni fosh qilishga harakat qiladi. Qahramonimiz yolg'onlarni tushunib "ko'zi ochilganida" aytgan so'zlari butun iztirob va og'riqlarini ifodalaydi: "-Umrin bino bo'lib yig'lagan emasman, deganmidim? Yo'q, yig'lagan ekanman, do'xtirjon. Bir marta!

Nega deysizmi? Qo'ying, bu gaplarni aytishga uyaladi, odam! Ha, men sodda edim. Ammo vijdotsiz emasdim! Go'l edim, ammo oriyatsiz emasdim! Ahmoq edim, ammo diyonatini pulga sotadiganlar xilidan emasdim. Kechagina boshiga qo'ngan baxt qushidan mast bo'lib yurgan odam, ertasiga mukkasidan yiqilsa g'alati bo'larkan. Odamning peshanasi taq etib devorga urilganidan keyin ko'zi ochilarkan. Shuncha paytdan beri ko'r ekanman, so'qir ekanman..."<sup>67</sup>

Rais buva obrazi qissa markazidagi xarakterlardan biri bo'lib, umumlashma obraz sifatida o'z foydasi uchun ish qiladigan, butun hisobotlarni qog'ozdagina berib qolganini pul bilan hal qiladigan, o'z manfaati uchun oddiy odamlardan foydalanadigan ko'zbo'yamachi mansabdor shaxslarni ifodalagan. Raisni kirdikorlaridan ko'pchilik xabardor bo'ladi, ammo hech kim unga qarshu haqiqatlarni ochiq aytolmaydi, unga qarshi hech nima qilmaydi. Qo'shoqvoyning otasi Rais buva "Mash'al" jamoa ho'jaligiga kelguncha buxgalter bo'lib ishlagan, u kelgach ishdan bo'shaydi. Raisning yolg'on –yashiq ishlariga qo'shilib, noto'g'ri hisobot berishni xohlamaydi. "Odam boshqa narsada adashsa mayli, lekin hisobda adashmasligi kerak... Rais hisobdan adashmaganim uchun yomon ko'ryapt-ida meni. Unga hisobni bilmaydigan hisobchi kerak." <sup>68</sup>- deydi u. Salim aka Raisning qanday odam ekanligin biladi va shuninguchun Raisning o'g'liga qilayotgan hech bir ishiga ro'yxushlik bermaydi. Rais bekordan bekor birovga yaxshilik qilmaydi, "Tullak Rais beradiganini belbog'iga bog'lasin", deydi. Asarning butun mohiyati Rais buva "ig'vogar" deb atagan ekonomist Ergashev va Qo'shoqvoy dialogida ochib berilgan:

"-Hammasini bilaman, Qo'shoqjon! Mehnatini siz qilasiz, huzurini ular ko'radi. Rais, bosh bux., ekanamis... Bular uzoqda o'tirgan "aka"larining og'ziga qarab turadi. Besh tonna so'rasa, olti million beramiz deydi. Gektaridan qirq sentnerdan hosil olasan, desa, oltmish sentner olaman, deb og'iz ko'pirtiradi! Umrda paxtazorga kirmagan odam paxtani qayoqdan bilsin? Paxtakor mehnati o'limdan qiyinligini qayoqdan bilsin?! Ularga paxtakorning o'zi kerakmas, paxta kerak! Bular bo'lsa ularning ko'nglini ovlab mansabga erishadi, orden oladi. Jaraq-jaraq pul ishlaydi." <sup>69</sup>Mana shu

<sup>67</sup> Hoshimov.O'. "Ikki karra ikki – besh". T.: Nurli dunyo, 2024, 196-bet.

<sup>68</sup> Hoshimov.O'. "Ikki karra ikki – besh". T.: Nurli dunyo, 2024, 12-bet.

<sup>69</sup> Hoshimov.O'. "Ikki karra ikki – besh". T.: Nurli dunyo, 2024, 154-bet.



o'rinlarda Ergashev Qo'shoqvoyga Rais va uning hamtovoqlari tomonidan qilinayotgan kirdikorlarni, yolg'onlarni ochib tashlaydi. Ammo Qo'shoqvoy uning hamma gaplari rost ekanligini bilsa ham uni Rais aytganidek "ig'vogar" deb hisoblaydi. Ergashev aytgan gaplar haqida fikr ham yuritib ko'rmaydi. Berilgan hamma savollarga "Bilmayman" deb javob beradi. Hisobot va gazetalarda chiqayotgan paxta hosili haqidagi ma'lumotlar, xo'jalikdagi ishchilar hayoti, ularga yaratilgan sharoit va imkoniyatlar haqidagi maqolalar faqat qog'ozlardagi yolg'onlar ekanligini bilsa ham haqiqat uchun bir og'iz gap gapirmaydi, xuddi aslida ham shunday bo'lishi kerakday. Qo'shoqvoyning bu xarakteri orqali adib xalq orasidagi o'z fikriga ega bo'lmagan, "katta" larning aytgani bilan ish ko'radigan kishilar obrazini ochib bergan.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdimo'minova Sh., Suvonov H. O'tkir Hoshimovning shaxsiy hayoti va faoliyati
2. O'zbek adabiyoti darsliklari (XX asr o'zbek nasri va hajviyoti bo'yicha).
3. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1982.
4. O'tkir Hoshimov. Ko'kyo'tal.Hikoya
5. O'tkir Hoshimov. Ikki karra ikki - besh. T.: Nurli dunyo, 2024
6. O'zbek adabiyoti darsliklari (XX asr o'zbek nasri va hajviyoti bo'yicha).
7. Internet manbalari:

Tafakkur.uz – O'tkir Hoshimov asarlari to'plami

Arxiv.uz – O'tkir Hoshimov ijodi haqida materiallar